

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**60510100 - BIOLOGIYA (TURLAR BO‘YICHA) MUTAXASSISLIGI  
BO‘YICHA IKKINCHI TA‘LIMGA KIRISH SINOVLARI**

**DASTURI**

**Guliston – 2022**

**Tuzuvchilar:** Z.U.Abdikulov — “Biologiya” kafedrası mudiri,  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent.  
M.M.Ergaeshv - “Biologiya” kafedrası dotsenti,  
biologiya fanlari nomzodi.

**Taqrizchi:** A.Pazilov — GulDU “Biologiya” kafedrası  
professori, biologiya fanlari doktori.

Guliston davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2022 yil “15”-MAY  
dagi № 12-sonli majlisda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

### **Kirish**

60510100 - Biologiya (turlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi ta'limga kirish sinovlari dasturi O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda №794 raqam bilan ro'yxatga olingan “O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom” talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, 60510100 - Biologiya (turlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi ta'lim olishga da'vogarlar:

- organik olam, evolyutsiyasi, materiyaning o'ziga xos biologik shakllanish xususiyatlari, ko'payish usullari va tiriklikning rivojlanishi, tabiatdagi dinamik va statistik qonuniyatlar, biologik farqlar, belgi va xususiyatlarning naslga berilish qonuniyatlari va ulardan amaliyotda foydalanish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- ikkinchi ta'limga da'vogar biologik va genetik jarayonlarni hamda organizmlar to'g'risida olingan ma'lumotlarni genetik va statistik tahlil qilishni bilishi va undan foydalana olish.

- ikkinchi ta'limga da'vogar o'simlikshunoslik hamda chorvachilik amaliyotida biologiya qonuniyatlarini qo'llash, shu masalalar bo'yicha muommolar yechimi to'g'risidagi qarorlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak.

### **BIOLOGIYA FANINING DASTURI MAZMUNI**

#### **Biologiya fanining vazifasi, o'rganadigan sohalari va uslublari.**

Biologiya fanining maqsadi va vazifasi. Rivojlanish bosqichlari. O'rganish usullari. Tabiiy fanlarning shakllanishida o'rta asrda yashab ijod etgan o'rta osiyo allomalarining qo'shgan xissalari. Hujayra nazariyasining yaratilishi. Tur to'g'risida tushunchalarning shakllanishi. Tiriklikning molekulyar, subhujayraviy, hujayraviy, to'qima va a'zo, organizm, populyatsiya va tur, biogeotsenotik va biosfera darajalari. Yozuv bilan ifodalash, taqqoslash, tarixiy va tajriba o'tkazish metodlarining shakllanishi. Hozirgi zamon biologiyasidagi umumlashtirishlar, erishilgan yutuqlar va fan muammolari.

#### **Ch Darvinning evolyutsion ta'limoti va undan keyingi davr.**

Ch.Darvingacha evolyutsiya to'g'risida fikrlar. K.Linneyning sistematika faniga asos solishi. Lamarkning evolyutsion ta'limoti. Ch.Darvinning hayoti va ilmiy faoliyati. Yirik ilmiy asarlari va ularni qisqacha mazmuni. Darvin evolyutsion ta'limotning mohiyati. Yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish va ular xillari. Evolyutsiya va irsiyat. Darvin davrida tur tushunchasi.

Darvin ta'limoti uchun kurash. Darvindan keyin evalyutsion ta'limoti. Biologik progressning turli yo'nalishlari Aromorfoz, idioadaptatsiya va umumiy degeneratsiya. Morfofiziologik regress.

#### **Erda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

Yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risida tushunchalar, nazariyalar va gipotezalar. Quyosh sistemasi haqida ma'lumot. Yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risida diniy qarashlar. Yerdan tashqarida va hayotning o'z o'zidan paydo bo'lishi to'g'risida tushunchalar. Oparinning abiogen nazariyasi. Biogenezning asosiy bosqichlari va ularning tajribada isbotlanishi. Era va davrlar. Yerda hayot rivojlanishining asosiy bosqichlari. Arxei va proterozoy eralarida biosfera. Paleozoy erasidagi hayot. Mezozoy erasida hayotning rivojlanishi. Kaynozoy erasining boshlanishi va hozirgi hayot. Era va davrlarda yashab o'tgan tirik organizmlar to'g'risida paleontologik dalillar.

#### **Hujayra biologiyasi. Tiriklikning mohiyati va darajalari**

Tiriklikning hujayrasiz va hujayraviy shakllari. Hujayra nazariyasi va uning mohiyati. Hujayraning tarkibiy qismlari va ularning vazifalari. Organoidlar va kiritmalar. Hujayra yadrosining tarkibi. Kariotip va poligen (yirik) romosomalar. Hujayraning hayotiy shakli va bo'linishi. Hujayrada modda va energiya oqimi.

Tiriklikning asosiy tuzilma darajalari va ularning o'zaro aloqadorligi. Organizmning molekulyar, subhujayraviy, hujayraviy, to'qima, organizm, populyatsiya va tur, biogeosenotik va biosfera darajalari. Hujayra to'g'risidagi hozirgi zamon tushunchalari.

#### **Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi**

Organizmlarning jinsiz va jinsiy ko'payishi. Jinsiz ko'payishning endogoniya, shizogoniya, sporogoniya, kurtaklanish va vegetative xillari. Jinsiy ko'payishning konyugatsiya, izogamiya, geterogamiya, oogamiya, partenogenez, ginogenez va androgenez xillari. Ganetogenezning yuzaga kelishi. Gametogenezda meiotik bo'lini va uning biologik ahamiyati.

Ontogenez va filogenez haqida tushuncha. Individual rivojlanish biologiyasi va qonuniyatlari. Urug'lanish va implantatsiya. O'simliklar rivojlanishining xilma-xilligi. Ontogenezning tip va davrlari. Organizmning o'sishi va uning bosqichlari. Organizmning qarishi, qarichilik va o'lim. Gomeostaz.

#### **Organizm va muhit.**

Tabiatda mavjud bo'lgan barcha tirik mavjudodlar umumiy hayoti davomida ham tirik tabiat, ham notirik tabiat ko'rsatadigan ta'sir tufayli yashashi. Organizmlar yashashi uchun atrof muhit omillarining zarurligi.

Organizmlarga bevosita ham bilvosita ta'sir etuvchi omillar. Hayotiy sharoitda omillarning turli xil tabiiy unsurlar, jismlar, tabiiy hodisalardan iboratligi. Abiotik, biotik va antropogen omillar. Organizmlar adaptatsiyasi. Ekologik omillar optimumi. Ekstremal omillar. Har xil xususiyatlarga omillarning ta'siri. Muxitga individlarning har xil reaksiyasi. Har xil

omillarga organizmlarning nisbiy moslashuvchanligi. Turlarda ekologik spektrlarning mos kelmasligi. Omillarning o'zaro ta'siri. Omillar ta'sirining chegaralanish qoidalari.

#### **Genetika fanining vazifasi, o'rganadigan sohaları va usullari.**

Genetika fanining maqsadi va vazifalari rivojlanish bosqichlari, o'rganish usullari. Irsiyat va o'zgaruvchanlik to'g'risida tushuncha. Irsiyat va o'zgaruvchanlik to'g'risida XIX asrgacha olib borilgan tajribalar, taxminlar va gipotezalar. Mendel ta'limotining ochilishi va 1900 yilda G.de-Friz, K.Korrens va K.Chermak tomonidan qayta tasdiqlanishi. Ch.Darvinning evolyutsion nazariyasi va uning irsiyat va o'zgaruvchanlikni tushuntirishdagi roli. Genetika fanining shakllanishi. Genetika fanining rivojlanish istiqbollari, yutuqlari va muammolari.

#### **Irsiyatning sitologik va molekulyar asoslari.**

Hujayra to'g'risida tushuncha. Hujayra yadrosi va sitoplazmaning irsiy xususiyatlarni o'zida saqlashi va irsiy axborotning amalga oshishi. Xromosoma morfologiyasi. Xromosoma – irsiyatning moddiy negizi ekanligi. Gaploid va diploid, autosoma va jinsiy xromosomalar to'g'risida tushuncha.

Nuklein kislotalar va ularning irsiyatdagi roli. DNK va RNK turlari. Chargaf qoidasi. Uotson va Krik ta'limoti bo'yicha DNK tuzilishi. F.Griffits va O.Everi tajribasi. Replikatsiya, transkripsiya, teskari transkripsiya tushunchasi va ularning irsiyatdagi ahamiyati. Nirenberg, Ochoa va Mittenlarning ishlari. Genlarning tuzilishi va funktsiyasi. Genning xususiyatlari –allellik, doimiylik, xususiylik va graduallik. Oddiy va murakkab genlar. Strukturali va regulyatsiya boshqaruvchi genlar. Genetik kod va uning biologik xususiyatlari. Genetik kodni aniqlash. Nirenberg, Ochoa va Mittenlarning ishlari. Oqsil sintezlashda DNK va RNK ning o'zaro ta'siri. A-RNK ning oqsil sintezida matritsa ro'lini bajarishi.

#### **Gametogenez va urug'lanish.**

Jinsiy xujayralar tug'risida tushuncha. Tuxum va urug' xujayra, ularning yetilishi. Hayvonlarda gametogenez. O'simliklarda mikrosporigenez va mikrogametogenez. Megasporigenez va megagametogenez. Hayvonlarda otalanish va o'simliklarda urug'lanish. Qo'sh urug'lanishning mohiyati, urug'lanish jarayonida turning yashab qolishi uchun quyidagi genetik hodisalar yuz berishi:

1) xromosomalarning diploid sonining tiklanishi; 2) bir avlod bilan keying avlod o'rtasida moddiy ketma-ketlikning taminlanishi; 3) bir individumda ota ona organizmlarining irsiy xususiyatlarining mujassamlashishi. Nomuntazam jinsiy ko'payish xillari. Partenogenez, ginogenez va androgenez. Amfimiksis va apomiksis.

#### **Tur ichida duragaylashda irsiyat qonunlari.**

Tur ichida duragaylashda irsiyat qonunlari. Monoduragay chatishtirish. G.Mendel qonunlari. Mendel ta'limotining ochilishi va 1900 yilda G.de-Friz, K.Korrens va K.Chermak tomonidan qayta tasdiqlanishi.

Gibridologik analiz usuli. Chatishtirishni harflar bilan yozish. Birinchi avlod duragaylarining bir xillik qonuni. Dominantlik va retsessivlik. Gomozigota va geterozigota. Allel genlar. Genotip va fenotip. Monoduragay, diduragay va poliduragay chatishtirishda fenotip va genotip bo'yicha belgilarning ajralish qonuni. Pannet katakchasi. Retsiprok, takroriy va taxlily chatishtirish.

#### **Allelmas genlarning o'zaro ta'siri natijasida belgilarning naslga o'tishi.**

Genlarning o'zaro ta'siri natijasida belgilarning naslga o'tishi. Genlarning o'zaro ta'sir etish xillari. Allel va allelmas genlarning o'zaro ta'siri. Allelmas (epistaz, komplementarlik, va polimeriya) o'zaro ta'siri natijasida yangi tiplarning hosil bo'lishi. Genlarning komplementar ta'siri natijasida sutemizuvchilarning hujayralarida virusga qarshi oqsil interferoning ishlab chiqilishi. Epistatik va gipostatik gen. Komplementar va epistaz ta'sir natijasida hosil bo'lgan belgilarning  $F_2$  da ajralish qonuniyatlari. Genlarning polimer ta'siri. Ikkinchi bo'g'inda belgilarning ajralish nisbati va uning mohiyati. Nolson-Ele tajribasi. Miqdor va sifat belgilar to'g'risida tushuncha. Genlarning modifikator ta'siri. Genlarning polimer ta'siri to'g'risida G.Nilson-Ele ishlari. Kumulyativ va kumulyativ bo'lmagan polimeriya. Genlarning pleiotrop ta'siri. Birlamchi va ikkilamchi pleiotrop ta'sir.

#### **Uzoq shakllarni duragaylash.**

Turlararo va avlodlararo duragaylash. Turlar chatishmasligi va uning sabablari. Chatishmaslikni bartaraf qilish usullari. Duragaylash nazariyasi va amaliyotida I.V.Muchurin ishlarining ahamiyati. Chatishmaslikni yengishda poliploidiya va mutagenezdan foydalanish. Uzoq duragaylarning pushtsizlik sabablari va uni bartaraf qilish usullari. Uzoq duragaylashda avlodning ajralish xususiyatlari. Uzoq duragaylashdan selektsiyada foydalanish.

#### **Xromosoma nazariyasi.**

Irsiyatning xromosoma nazariyasining yaratilishi. T.Morgan va uning shogirdlari ishlari. Xromosoma morfologiyasi, kariotip. Jins genetikasi jins bilan birikkan belgilarning naslga o'tishi.

Erkak va urg'ochi jinslarning kariotiplari. Gomogamet va geterogamet jinslar. Jinsni belgilash xillari: progam, epigam va singam. Jins bo'yicha ajralish. Jinsning belgilanishida tenglik nazariyasi. K. Bridjes ishlarining mohiyati. Jins nisbatining amalda o'zgarishi va kerakli jinsli organizmlar olish. Jins bilan birikkan belgilarning naslga o'tish. T.Morgan tajribasi. Bu qonuniyatdan xalq xo'jaligida foydalanish (ipak qurtida V.A.Strunnikov ishlari misolida). Jins bilan birikkan kasalliklar va ularning naslga berilishi. Belgilarning birikkan holda naslga o'tishi. Mustaqil va birikkan holda nasilga o'tishda duragaylarga avlodida ajralish qonuniyatlari. Genlarning birikkan holda naslga berilishi. Birikish guruhlari va ularni aniqlash. Krossingover va uning xillari. Krossingoverga ta'sir etuvchi omillar. Xromosomalarning joylashishining genetik xaritasi va uni tuzish usuli.

Xromosomalarning genetik va sitologik xaritalarini taqqoslash. Krossingoverning sitologik isboti. Krossingover va gen almashinuvining (rekombinatsiya) evolyutsiya va selektsiya ishida axamyati.

#### **Belgilarning birikkan holda naslga o'tishi.**

Belgilarning birikkan holda naslga o'tishi. Mustaqil va birikkan holda naslga o'tishda duragaylar avlodida ajralish qonuniyatlari. Genlarning birikkan holda naslga berilishi. Birikish guruhlari va uni aniqlash. Krossingover va uni xillari. Krossingoverga ta'sir etuvchi omillar. Xromosomalarning joylashishining genetik xaritasi va uni tuzish usuli. Xromosomalarning genetik va sitologik xaritalarini taqqoslash. Krossingoverning sitologik isboti. Krossingover va gen almashinuvining (rekombinatsiya) evolyutsiya va selektsiya ishida axamyati.

#### **O'zgaruvchanlik qonuniyatlari.**

O'zgaruvchanlik va uning xillari. Fenotipik va genotipik o'zgaruvchanlik. Modifikatsion va mutatsion o'zgaruvchanlik. Uzoq muddatli modifikatsiyalar. Organizmlarning reaksiya normasi. Tabiiy va sun'iy mutatsiyalar. G.de-Frizning mutatsion nazariyasi va uning mohiyati. N.I.Vavilovning irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlar qonuni. Genotipik o'zgarishga ko'ra mutatsiya klassifikatsiyasi. Mutagenlar va ularning klassifikatsiyasi. Nuqta yoki gen mutatsiyasi. Xromosoma ichidagi o'zgarishlar (inversiya, deletsiya). Xromosomalarda o'zgarishlar-translokatsiya. Xromosoma sonining o'zgarishi (poliploidiya, gaploidiya, geteroploidiya yoki aneuploidiya). Jinsiy hujayralarda hosil bo'lgan generativ mutatsiya. Spontan va indutsirlangan mutatsiyalar.

#### **Poliploidiya va gaploidiya.**

Poliploidiya haqida tushuncha va uning xillari. Xromosoma soni ortishining moddiy asosi. Meyotik, zigotik va mitotik poliploidiya. Allopoliploidiya va avtopoliploidiya olish usullari. Gaploidiya. Gaploidlar klassifikatsiyasi. Gaploid organizmlarni sun'iy hosil qilish usullari. Poliploidiyaning evolyutsiya va selektsiya ishida ahamiyati. Uzoq shakllarni duragaylashda poliploidiyadan foydalanish. Geteroploidiya. Monosomik va trisomik organizmlarning hosil bo'lishi. Turli xildagi poliploidli o'simliklar olish va ularning ahamiyati.

#### **Geterozis va sitoplazmatik irsiyat.**

Inbriding va autbriding haqida tushuncha. Inbriding va geterozis. Inbridingning biologik va genetik asoslari. Chetdan changlanuvchi o'simliklarda inbriding. Inbred minimum, inbred depressiya va uning ta'sirini pasaytirishi yo'llari. Inbred liniyalarning yaratilishi. Chorvachilikda inbridingdan foydalanish. Geterozis xodisasi va uning xillari. Geterozisning nomayon bo'lish xususiyatlari. Geterozis samaradorligining pasayish sabablari va uni mustahkamlash yo'llari. Geterozisdan o'simlikshunoslik va chorvachilikda foydalanish. Sitoplazmatik irsiyat va uning molekulyar asoslari.

Sitoplazmatik erkak pushtsizligi xodisasi (SEP). Geterozis olishda SEPdan foydalanish.

#### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

##### Asosiy adabiyotlar

1. П.Х.Холиқов, Н.Шарофиддинхўжаев, П.Олимхўжаев ва бошқалар Биология Тошкент – 2005.
2. Аберкулов М.Н., Шермухамедов К.Қ. Генетикадан амалий машғулотлар, Ўқув қўлланма. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2007 й. 128 б.
3. Мусаев Ж.А. ва бошқ. Генетика ва селекция асослари., Дарслик, Тошкент, 2012.
4. Michael L. Cain Steven A. Wasserman Jane B. Reece Lisa A. Urry Peter V. inorsky Robert B. Jackson CAMPBELL BIOLOGY
5. Т.Э.Остонакулов, И.Х.Хамдамов, И.Т.Эргашев, К.К.Шермухамедов Биология ва генетика Т-2014.

##### Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017 – 56b
7. Mirziyoev Sh.M. Konititusion ustuvorligi va inson mafaatini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi "O'zbekiston". NMIU. 2017 – 47b
8. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – "O'zbekiston" NMIU. 2017. – 485 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU. 2017–103b
10. Аберкулов М. Генетика ва биотехнология (маъруза матнлари) Т., 2000.
11. Остонакулов Т.Э. ва бошқ. Генетика асослари. Дарслик. Т. 2006й.
12. G'ofurov A.G. va boshqalar, Genetika, Darslik, Toshkent, 2010.

##### Axborot manbaalari

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat partoli
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. [www.ZivoNet.uz](http://www.ZivoNet.uz)
4. [www.referfat.ru](http://www.referfat.ru)
5. [www.biology.com](http://www.biology.com)
6. [www.biology-online.org](http://www.biology-online.org)
7. [www.biology.cornet.com](http://www.biology.cornet.com)
8. [www.bgreenpeace.org/gening/](http://www.bgreenpeace.org/gening/)

#### 60510100 - BIOLOGIYA (TURLAR BO'YICHA) MUTAXASSISLIGI BO'YICHA IKKINCHI TA'LIMGA KIRISH SINOVLARINI BAHOLASH MEZONI

Guliston davlat universitetida 60510100 - Biologiya (turlar bo'icha) mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi ta'limga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda №794 raqam bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiq-langan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi oliy ta'lim olish istagini bildirganlar universitet qabul komissiyasiga Nizom talablarida keltirib o'tilgan hujjatlarni rasmiylashtirib topshirganlaridan so'ng, barcha iqtisodiy fanlar uchun uslubiy asos va manba bo'lib xizmat qiluvchi "Biologiya" fanidan 50 (ellik) ta test savollaridan iborat sinov topshiradilar. Mazkur test savollari tarkibiga Biologiya fani dasturining barcha bo'limlarini qamrab oluvchi mavzular asosida test savollari kiritiladi.

Kirish sinovi – test jarayonining adolatli o'tishini ta'minlash maqsadida test universitetning multimediy markazida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda o'tkaziladi. Test sinovlari jarayonining davomiyligi 60 daqiqani tashkil etadi. Har bir to'g'ri javob berilgan test savoliga 2,0 (ikki) ball beriladi. Test sinovlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball mos ravishda 100 (yuz) ballni tashkil etadi. Eng yuqori ball to'plaganlar universitet qabul kvotasi doirasida ikkinchi ta'lim olishga tavsiya etiladilar.

**Izoh:** Saralash bali foiz xisobida 55 dan kam bo'lmasligi lozim. Ikkinchi oliy ta'lim olishga da'vogarlar saralash balidan yuqori ball to'plaganlar orasidan yuqoridan pastga ketma-ketlik asosida tavsiya etiladi.

## 1- Ilova.

### O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi ta'limni olish tartibi to'g'risida

#### NIZOM

(O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan 24.07.1999 yilda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.08.1999 yilda

№794 raqam bilan ro'yxatga olingan)

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va idoraviy tasarruflik va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga tegishlidir.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq fuqarolar ikkinchi va keyingi oliy ma'lumotni to'lov-kontrakt (shartnoma) asosida olish huquqiga ega.

3. Ikkinchi oliy ma'lumot quyidagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga beriladi:

bakalavriat va diplomli mutaxassis darajasidagilarga - oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha;

magistratura darajasidagilarga - oliy ta'lim muassasasida tayyorlanadigan magistratura mutaxassisliklari bo'yicha. Ikkinchi oliy ma'lumot olish mumkin bo'lgan turdosh mutaxassisliklar ro'yxati Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Bakalavrlar va diplomli mutaxassislar uchun magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olish ikkinchi oliy ma'lumot sifatida qaralmaydi.

4. Ikkinchi oliy ma'lumot olish uchun talabalar qabulini oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi amalga oshiradi. Ikkinchi oliy ta'lim bo'yicha qabul ko'rsatkichlari ta'lim muassasasi uchun muayyan ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) bo'yicha o'rnatilgan qabul rejasidan (muvofiq ravishda bakalavriat va magistratura bo'yicha) ortiq bo'lishi mumkin emas.

Ikkinchi oliy ma'lumot olish bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqiga ega oliy ta'lim muassasalari ro'yxati hamda ularning bakalavriat va magistraturasiga qabul ko'rsatkichlari tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning marketing ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

5. Oliy ta'lim muassasasining qabul komissiyasi kiruvchilarning bilim darajasini baholash maqsadida shakli va mazmuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishiladigan sinovlar o'tkazish huquqiga ega.

6. Oliy ta'lim muassasasi quyidagilarni mustaqil hal qiladi:

hujjatlarni qabul qilishda va ularning haqiqiyiligini aniqlashda qabul komissiyasi mas'uliyatini oshirish;

ikkinchi ta'lim olishga kiruvchilarning bilim darajasini, mavjud va ikkinchi ta'limni olish uchun zarur bilimlar hajmidagi farqlarni aniqlash bo'yicha sinovlar uslubiyotini ishlab chiqish;

kiruvchilar tomonidan o'quv reja va dasturlardagi farqlarni tartibli topshirish muddatlarini o'rnatish;

o'quv dasturlardagi farqlar va kiruvchining tayyorgarlik darajasi hisobga olinib bakalavriatda o'qish kursini (ikkinchi kursdan past emas) o'rnatish.

7. Ikkinchi oliy ma'lumot bo'yicha o'qitish to'lov-kontrakt (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. To'lov-kontrakt asosida o'qish uchun kontraktni tuzish tartibi va shartlari, jumladan to'lov mablag'lari va muddatlari "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq aniqlanadi.

8. Ikkinchi oliy ma'lumot bo'yicha talabalar safiga qabul ta'lim muassasasining qabul komissiyasi qaroriga asosan rektorning buyrug'i bilan muvofiq kursda o'quv mashg'ulotlari boshlanishigacha hamda kontrakt shartlarida belgilangan to'lov miqdori o'tkazilgandan keyin chiqariladi.

9. Ikkinchi oliy ma'lumot olgan shaxslarga, davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha, davlat namunasidagi hujjat (diplom, ilova bilan) beriladi.

10. Ikkinchi ta'limni berishning ushbu tartib va qoidalari o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ham qo'llaniladi.

O'rta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega shaxslar ikkinchi o'rta maxsus ta'limni to'lov-kontrakt (shartnoma) asosida olish huquqiga egadirlar.

11. Ikkinchi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumot olish uchun qabul yuzasidan barcha masalalar bo'yicha shaxsiy mas'uliyat ta'lim muassasasining rektori (filial direktori) zimmasiga yuklanadi.